

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

RAXIMOV MUXAMMADSODIQ DAVRONJON O‘G‘LI

**TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILAYOTGAN
TERRORCHILIK HARAKATLARINING OLDINI OLISH CHORALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.15 – Kriminologiya

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Raximov Muxammadsodiq Davronjon o‘g‘li

Transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining oldini olish choralarini takomillashtirish..... 3

Рахимов Мухаммадсодик Давронжон угли

Совершенствование мер по предотвращению террористических актов, с использованием транспортных средств. 25

Raximov Muxammadsodiq Davronjon ogli

Improvement of measures to prevent terrorist acts using vehicles..... 46

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok o‘publikovannых rabot

List of published works..... 50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

RAXIMOV MUXAMMADSODIQ DAVRONJON O‘G‘LI

**TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILAYOTGAN
TERRORCHILIK HARAKATLARINING OLDINI OLISH CHORALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.15 – Kriminologiya

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Yu459 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kulmatov Sharof Asadovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zakirova Adina
yuridik fanlar doktori, professor
O‘razaliev Murod Qoraevich
yuridik fanlar doktori, professor

Etakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
Xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-aprel kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1531-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 20-martdagi № 6-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A. D.Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

B.N. Rashidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda terrorchilik faoliyatining oldini olish borasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, terrorchilik bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi yildan yilga ko'payib bormoqda. "Global Terrorism Index" tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2023 yilda dunyoda 3350 marotaba terrorchilik harakatlar sodir etilib, mazkur tajovuzlar 8352 nafar insonlarning hayotiga zomin bo'lgan¹. So'nggi yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlarning oldini olish borasidagi faoliyatining yetarli darajada to'g'ri tashkil etilmaganligi ularning sodir etilishining yangi shakllari va usullarini paydo bo'lishiga hamda ijtimoiy xavflilik darajasining tobora ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, terrorchilik harakatlarining salkam 70 foizi aynan transport vositalarida yoki ulardan foydalangan holda sodir etilayotganligi mazkur turdagi jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning oldini olish choralarini yanada kuchaytirish hamda ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahonda terrorchilik harakatlarini sodir etishda qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan transport vositalarini topish, ijaraga yoki sotib olish uchun keng imkoniyatlarning mavjudligi, mazkur maqsad yo'lida ko'p xarajatlar sarf etish zaruratining yo'qligi, terrorchilik harakatlari sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan bozorlar, sayilgohlar va boshqa jamoat joylariga transport vositalarini kirib borishining oldini oluvchi xavfsizlik choralarining yetarli darajada ko'rilmaganligi, transport vositalarining harakat yo'nalishlarini nazorat qilish tizimining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etish uchun uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etish zaruratining yo'qligi, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotida transport vositalaridan qurol sifatida foydalanib sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida insonlarning qurbon bo'lishi va aholi orasida vahima kelib chiqishiga sabab bo'layotgan muammolarni tadqiq etish orqali ushbu turdagi terrorchilik harakatlarining oldini olishni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda nafaqat shaxslarning huquq va erkinliklari himoyasini kuchaytirishga, balki jamoat xavfsizligini ta'minlash, jumladan, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish masalalariga alohida etibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan "2021—2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi" ning tasdiqlanganligi buning yorqin misoli bo'la oladi. Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk davrlardayoq terrorizm tahdidlariga duch kela boshlagan. Jumladan, o'tgan 30 yil davomida mamlakat hududida turli usullarda jami 15 dan ortiq terrorchilik harakatlari amalga oshirilgan. Ushbu terrorchilik harakatlari doirasida ham ko'p hollarda transport vositalaridan foydalanilganligi kuzatilgan. 2017 yil davomida dunyo bo'yicha transport vositalaridan zarar yetkazuvchi qurol sifatida foydalanish orqali sodir etilgan jami terrorchilik harakatlarining 2 tasi aynan O'zbekiston Respublikasi

¹ Global Terrorism Index 2024 - Measuring the impact of terrorism // <https://www.visionofhumanity.org/wp-content/uploads/2024/02/GTI-2024-Briefing-web.pdf>.

fuqarolari (*Nyu-York shahrida S.Soipov, Stokgolm shahrida R.Oqilov*) tomonidan sodir etilganligi mazkur turdagi terrorchilik harakatlarning vatanimiz xavfsizligiga ham ichki tomondan, ham diplomatik aloqalar barqarorligi jihatidan raxna solishi ehtimoli mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni (2000), O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni (2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 — 2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" (PF-6255-son 01.07.2021 y.), "O'zbekiston Respublikasining Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining "Terrorizm va ekstremizmni moliyalashtirishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga doir boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu Dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining

I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Terrorizmga qarshi kurashish va turli usullardan foydalanib terroristik harakatlar sodir etish bilan bog'liq holatlarni tadqiq etishga aloqador bo'lgan bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan.

Xususan, mustaqillik yillarida mamlakatimizda terrorizmga qarshi kurashishning ayrim masalalari mamlakatimiz olimlari A.S.Tursunov, Q.R.Abdurasulova, Z.X.Gulyamov, B.E.Zakirov, A.G.Zakirova, A.K.Zakurullaev, Z.S.Zaripov, J.A.Ibrohimov, A.G.Ikanov, I.Ismoilov, M.M.KadYROV, R.Kabulov, Sh.A.Kulmatov, J.A.Ne'matov, J.R.Ravshanov, M.A.Rajabova, M.H.Rustambaev, N.O.Safarova, O.A.Sotvoldiev, X.N.Temirov, A.S.Yakubovlar va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, mazkur olimlarning ilmiy ishlari terrorizmning jinoyat-huquqiy, kriminologik va kriminalistik jihatlariga bag'ishlangan.

MDH davlatlarida A.M.Abdulatipov, P.V.Agapov, S.V.Averin, Yu.S.Belik, S.Yu.Bogomolov, A.A.Dzyuba, M.Yu.Dvovskiy, Ye.A.Dimitrova, A.V.Danilov, A.N.Ignatov, A.M.Kirokossyan, M.V.Karakulin, Yu.A.Klimenko, Yu.A.Krutikina, T.F.Minyazeva, I.R.Mixeev, R.V.Minin, D.A.Nechitaylo, D.V.Nikitin, A.V.Smolyakov, A.V.Serebryakov, S.V.Starkov, A.N.Tarbagayev, V.I.Torgovchenkov, Z.A.Shibzuxov, N.A.Chernyadeva va boshqalarning tadqiqot ishlarida terrorizm muammosini tadqiq etishdagi ayrim ilmiy yondashuvlar, xususan, ekstremistik g'oyalarning ommaga ta'siri hamda terrorchilik harakatlarining sodir etish usullarini yoritishga bag'ishlangan.

Xorijiy davlatlarda Z.Amalija (Angliya), E.Amanda (AQSh), P.G.Beck (AQSh), M.J.Brian (AQSh), P.Bergen (AQSh), Ye.Gvozdeeva (Belgiya), S.B.Isak

(AQSh), S.M.Lonnkvist (AQSh), M.B.Molly (AQSh), E.Q.Cynthia (AQSh), L.Yu.Taova, E.Trels va boshqa olimlarning ishlarida transport terrorizmining ma'lum jihatlari bayon qilingan².

Biroq, yuqoridagi tadqiqotlarda aynan transport vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan terrorchilik harakatlarini oldini olish bilan bog'liq masalalar maxsus tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni batafsil o'rganib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari" (2021-2023) mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi transport vositalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- transport terrorizmi tushunchasi va mohiyatini ochib berish hamda ushbu turdagi terrorchilik harakatlarining huquqiy tavsifini o'rganish;
- terrorizm jinoyatining ko'rinishi sifatida transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining kriminologik tavsifini tahlil qilish;
- dunyo miqyosida transport vositalari yordamida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining sodir etilish tendensiyasini o'rganish hamda alohida xususiyatlarini tahlil qilish;
- ushbu usulda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining oldini olish yuzasidan milliy tajribani o'rganish;
- ushbu usulda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining oldini olishda ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- mazkur ko'rinishdagi terrorchilik harakatlarining oldini olish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ektini transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining oldini olish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining oldini olishning normativ-huquqiy va kriminologik jihatlari, mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy asarlar, tahliliy materiallar va xorijiy mamlakatlar tajribasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik tahlil usullaridan, jinoyat ishlari materiallarini o'rganish va boshqa metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi o'rtasida ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari targ'ibotchilarining buzg'unchi maqsadlarini fosh etishga qaratilgan tashviqot va targ'ibot chora-

² Бу ва бошқа манбалар диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатида келтирилган.

tadbirlarini o'tkazishda ilmiy-tadqiqot institutlari, OAV va NNTning huquqiy va diniy falsafiy yo'nalishlarda faoliyat yuritib kelayotgan ekspertlari imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligi asoslantirilgan;

terrorizm bilan bog'liq jinoyiy harakatlarga to'liq baho berish, shu jumladan, terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda paydo bo'layotgan yangi usullarga tez va aniq huquqiy baho berishni tashkillashtirishga qaratilgan qonunchilikka qo'shimcha mexanizmlarni kiritishga oid takliflar asoslantirilgan;

transport vositalari yordamida sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarining oldini olish maqsadida jamoat ob'ektlarida (ya'ni yirik bozorlar, saylgohlar, ta'lim muassasalari va boshq.), ularning turidan kelib chiqqan holda joriy etilishi lozim bo'lgan alohida xavfsizlik talablarni belgilash lozimligi asoslantirilgan;

terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishda media sohasidagi amaliyotchi mutaxassislarning malakasini oshirish, shuningdek, ekstremizm va terrorizmning ko'rinishlarini mas'uliyat bilan yoritish bo'yicha amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot ishining amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va kerakli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish davomida, transportdan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining to'g'ri talqin qilinishida qulaylik yaratish maqsadida "transportdagi terrorizm" hamda "transportdan foydalanib sodir etilgan terrorizm" tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

jinoyatga qarshi kurashni samarali tashkil etish, bu borada huquqni qo'llash amaliyotidagi kamchiliklarni bartaraf etish, jazo muqarrarligi prinsipidan kelib chiqib, terrorizmning barcha ko'rinishlari, xususan, transport vositalaridan foydalangan holda terrorchilik harakatlarini amalga oshirish holatlarini oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni hamda Jinoyat kodeksining 155-moddalarida ko'rsatilgan "terrorizm" (maqsadlarini aniqlashtirish hamda yagona ko'rinishga keltirish uchun) tushunchasiga hamda O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasida ko'rsatilgan "Terrorchilik harakati" ta'riflariga qo'shimcha o'zgartirish kiritish lozimligi asoslantirilgan;

umumiy profilaktik tadbirlarni to'g'ri tashkil qilish maqsadida, terrorchilik tashkilotlari a'zolari tomonidan internet tarmog'ida hamda chet ellardan turib yashirin tarzda amalga oshirilayotgan targ'ibot tashviquot ishlarining oldini olish hamda terrorchilarning buzg'unchi maqsadlarini fosh etuvchi tashviquot va targ'ibot chora-tadbirlarini o'tkazishda ilmiy doiralar va nodavlat tashkilotlarning diniy falsafiy yo'nalishlardagi malakali ekspertlari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish lozimligi asoslantirilgan;

terrorchilik harakatlarini sodir etishda ko'proq foydalanilayotgan yirik ko'rinishdagi yengil transport vositalari hamda yuk avtomobillariga JPS tizimlarini joriy qilish mexanizmlari o'rganib chiqilib, tahlil qilingan hamda bu tizimlarni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari mavjudligi asoslantirilgan;

joylardagi terrorchilik harakatlari sodir etilgan vaqtda nishondagi zaif ob'ektlarda (extimoliy talafotning kattaligiga qarab bosqichma-bosqich) terrorchilik harakatlarining oldini olish uchun, estetik yaxlitlikni saqlagan holda, ikki maqsadli dekorativ to'siqlarni o'rnatishni amaliyotga joriy qilish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonun normalari, xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlarning intervyu va ekspert baholash shakllariga asoslangan, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash amaliyoti, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Jinoyat huquqi” va “Kriminologiya”, “Terrorizmga qarshi kurashish” fanlari, shuningdek boshqa fanlardagi terrorizmning oldini olish bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi, tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida terrorizmga qarshi kurashish yo‘nalishida qonun ijodkorligini takomillashtirish, terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarga oid huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish, ushbu jinoyatlarning oldini olishdagi targ‘ibot ishlari sifatini yanada oshirishi bilan bog‘liq yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi. Shuningdek, “Jinoyat huquqi”, “Kriminologiya” va “Terrorizmga qarshi kurashish” fanlari bo‘yicha ma‘ruza, munozara va amaliy mashg‘ulotlarda, o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat qonunini takomillashtirish hamda huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirish, terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashishning zamonga mos bo‘lgan, tez samara beruvchi yangi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish jarayonida foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi:

O‘zbekiston Respublikasida terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish va uning oldini olishda huquqiy va kriminologik jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aholi o‘rtasida ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari targ‘ibotchilarining buzg‘unchi maqsadlarini fosh etuvchi tashviqot va targ‘ibot chora-tadbirlarini o‘tkazishda ilmiy-tadqiqot institutlari, OAV va NNTning huquqiy va diniy falsafiy yo‘nalishlarda faoliyat yuritib kelayotgan ekspertlar imkoniyatlaridan to‘g‘ri va keng foydalanishga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi PF-6255-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2021—2026 yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiyasi”ning 2-bobi 6-paragrafi “b” bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2022 yil 12 dekabrda 1212-son dalolatnomasi). Natijada, OAV va butun jahon internet ijtimoiy tarmoqlaridagi ekstremizm va terrorizmning barcha turdagi targ‘ibotlarining salbiy oqibatlari yanada minimallashtirilmoqda;

terrorizm bilan bog‘liq jinoyat harakatlarga to‘liq baho berish, shu jumladan, terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda paydo bo‘layotgan yangi usullarga tez va aniq huquqiy baho berishni tashkillashtirishga oid takliflardan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2021 yil 7 apreldagi O‘RQ-683-son Qonunining 123-moddasi 10-xatboshini ishlab chiqishda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022 yil 15 noyabrdagi 02/6-09-16-son dalolatnomasi). Natijada zamonaviy bosqichda terrorizm bilan bog‘liq holda yangi usullardan foydalanib sodir etilayotgan noqonuniy harakatlarga nisbatan huquqni qo‘llash amaliyotidagi ayrim kamchiliklar bartaraf etilishiga erishilmoqda.

transport vositalari yordamida sodir etilishi mumkin bo‘lgan terrorchilik harakatlarining oldini olish maqsadida jamoat ob‘ektlarida (ya‘ni yirik bozorlar, saylgohlar va boshq.), ularning turidan kelib chiqqan holda joriy etilishi lozim bo‘lgan alohida xavfsizlik talablarni belgilash bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 27 noyabrdagi 791-son Qarori bilan tasdiqlangan “Yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 6-bandi 6-xatboshisi hamda 7-bandi 8,10,11-xatboshilarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining 2025 yil 24 fevraldagi 12-16-10-son dalolatnomasi). Natijada, ayrim yirik jamoatchilik ob‘ektlarida terrorchilik xavflaridan himoyalaniş choralarini yanada takomillashtirilishiga erishilmoqda;

terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni oldini olishda media sohasidagi amaliyotchi mutaxassislarining malakasini oshirish, shuningdek, ekstremizm va terrorizmning ko‘rinishlarini mas‘uliyat bilan yoritish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqishga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi PF-6255-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2021 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiyasi”ning 2-bobi 6-paragrafi “g” bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2022 yil 12 dekabrda 1212-son dalolatnomasi). Ushbu taklif kelgusida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish yo‘nalishda mediya sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarining ko‘payishiga hamda bu yo‘nalishdagi amaliy tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 6 ta, xalqaro jurnallarda 4 ta, ilmiy anjumanlarda 3 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, Dissertatsiya mavzusining Dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi,

ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining normativ-huquqiy tavsifi**" deb nomlangan bo'lib, unda "transport terrorizmi" tushunchasi, uning ahamiyati, terrorizm va transportda sodir etilgan terrorchilik harakatlarining paydo bo'lish tarixi, transport terrorizmiga qarshi kurashishdagi xalqaro va milliy qonunchilik normalarining rivojlanish tarixi, ushbu turdagi terrorchilik harakatlarining huquqiy tavsifi hamda transport vositalaridan foydalangan holda sodir etiluvchi terrorchilik harakatlariga qarshi kurashish va ularni oldini olishdagi huquq normalari tahlil qilingan. Olimlarning tadqiqot mavzusiga oid bahsli fikr-mulohazalari haqida tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Xususan, tarixchi va ciyocatshunoc olimlarning terrorizm paydo bo'lgan davr haqidagi fikrlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ayrimlar fikricha, terrorizm yuzaga kelganiga hali ikki yuz yil ham bo'lmagan. Macalan, V.Jarinov terrorizm kamida bir yarim asrlik tarixga ega, (*ya'ni ko'pchilik terrorizmning paydo bo'lishini odatda, XVIII asrdagi fransuz revolyusiyasiga hamda 1917 yilda Rocciyada sodir bo'lgan revolyusiyaga olib borib taqashadi*) deb hisoblaydi. Ye.I.Stepanov singari bir qator olimlar eca terrorizmning tarixi asrlar qa'riga kirib boradi, deb hisoblashadi. Bunday yondashuv tarafdorlari har qanday ciyociy qotillikni terrorizmga tenglashtirishadi va, shu tariqa, terrorizm ildizini deyarli antik davrga olib borib taqashadi.

Birinchi bobning birinchi paragrafi "*Terrorizm jinoyatining ko'rinishi sifatida transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining mazmun va mohiyati*" deb nomlanib, unda tadqiqotchi "terrorizm", "transport terrorizmi" tushunchalari va ularning rivojlanish tarixini olimlar bilan atroflicha bahs-munozaraga kirishgan holda tahlil qilgan.

Jumladan, dissertant "terrorizm" tushunchasining paydo bo'lish tarixini quyidagi uchta davrga bo'lgan holda tadqiq etgan:

birinchi davr – eramizdan avvalgi IV-II asrlar oralig'ini o'z ichiga oladi. Xususan, "terror" atamasini birinchi bor **Arastu** qadimgi yunon teatrlaridagi tragediyalarda tomoshabinlarning his-tuyg'ulariga ta'sir etish maqsadida "qo'rqinch" ma'nosida qo'llaydi. Shuningdek m.a. 44-yilda Rim imperatori bo'lgan Gay Yuliy Sezarning o'ldirilishini xam qadimgi dunyo olimlari dastlabki siyosiy terrorizmning ilk ko'rinishi deb hisoblaydilar.

ikkinchi davr – aksariyat olimlar tomonidan XVIII-asr oxirlari terrorizm tushunchasining paydo bo'lish davri deya ataladi. "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793-1794 yillarda Fransiya inqilobi davrida paydo bo'lgan. Shuningdek, XVIII-asrga taalluqli bo'lgan fransuz lug'atida "terrorizm" va "terrorchi" atamalari ko'pincha yakobinchilar tomonidan o'zlariga nisbatan ijobiy ma'noda qo'llanilgan. Biroq, ma'lum vaqt o'tib "terrorchi" so'zi "jinoyatchi" so'zining sinonimiga aylanib, haqoratli mazmun kasb eta boshlagan hamda "terrorizm" atamasi "dahshat hukmronligi"ning boshlanishi sifatida qayd etilgan.

uchinchi davr – yana bir guruh tadqiqotchilar terrorizm o'tgan asrning oxirida paydo bo'lgan mutlaqo yangi hodisa, deb yozadilar. Boshqa bir nazariyaga ko'ra, birinchi terrorchilar o'tgan XX asrning 50-60-yillarida Falastinda faoliyat yuritgan "Shilot Sikari" uyushgan sektasining a'zolari bo'lgan.

Shuningdek, transportdagi terrorizm masalasida Sh.G'.G'oyibnazarov terrorning namoyon bo'lishini tasniflashda qisman to'xtalib o'tgan. Xususan, u "Skaydjeking" va "Xaydjeking" atamalarini yoritib, ularni transport terrorizmi bilan bog'lab o'tadi. Bundan tashqari, rossiyalik A.M.Kirokossyan va L.Yu.Taovalar tomonidan ilk bor "transportdagi terrorizm" tushunchasiga alohida ta'rif berilgan.

Shuningdek, muallif tomonidan transport terrorizmi bilan bog'liq barcha mavjud ta'riflar tahlil qilinib, "transportdagi terrorizm" va "transportdan foydalanib sodir etilgan terrorizm" tushunchalarini alohida ajratilib, quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

"Transportdagi terrorizm – bu alohida shaxs yoki shaxslar tomonidan, jamoatchilik orasida qo'rquv va vahima chiqarish maqsadida, transport vositalarining ichida amalga oshiriladigan terrorizmning maxsus shaklidir.";

"Transportdan foydalanib sodir etilgan terrorizm – alohida shaxs yoki shaxslar tomonidan, transport vositalaridan qurol sifatida foydalangan holda, insonlarni jismonan yo'q qilish hamda jamoatchilik ob'ektlariga zarar yetkazish bilan amalga oshiriladigan terrorizmning maxsus shaklidir.";

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *"Transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining huquqiy tavsifi"* deb nomlangan. Unda tadqiqotchi tomonidan terrorizmning oldini olishdagi milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili amalga oshirilgan. Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar huquqiy jihatdan atroflicha o'rganilib chiqilgan va bu borada olimlarning qarashlari tahlil qilingan.

Ushbu paragrafda dissertant tomonidan terrorizm hamda transport terrorizmining oldini olish bilan bog'liq bo'lgan jami 20 dan ortiq xalqaro huquqiy normalar (*turli konvensiya va protokollar*) tahlil qilingan. Shu bilan birga, inson huquqlari va huquq ustuvorligi prinsipi asosida va ularga muvofiq, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 1 iyuldagi Farmoni (PF-6255) bilan tasdiqlangan "2021–2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Milliy strategiyasi" o'rganib chiqilib, mazkur strategiyani amalga oshirishda OAV va internet tarmog'idagi targ'ibot-tashviqot ishlari katta ahamiyatga egaligi asoslantirilgan.

Yuqoridagi tahlillarning natijalarida terrorizmni tushunish bo'yicha yagona, yaxlit qarashga ega bo'lish zarurati mavjudligi ko'rsatildi. Xuddi shunday muammoli holat milliy qonunchiligimizda ham mavjudligiga, xususan, "terrorizm" tushunchasiga "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun va Jinoyat kodeksining 155-moddasida turlicha ta'rif berilganligiga urg'u berilgan.

Dissertantning fikricha, mazkur tafovutlar terrorizm hodisasini to'g'ri va bir xilda tushunish hamda amaliyotda ularga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni to'g'ri tashkil qilishda ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi bayon etilib, tadqiqotchi tomonidan ushbu masalada ikki qonundagi ta'riflarni bir xil ifodalaydigan ilmiy-nazariy ta'rif ishlab chiqish zarurligi asoslantirilgan va bu borada dissertant "terrorizm" tushunchasiga o'zgartirish kiritish asosida mualliflik ta'rifini taklif etgan.

Shuningdek, ushbu paragrafda dissertant tomonidan "transport vositalaridan foydalanib sodir etiluvchi terrorchilik harakati" jinoyatining ob'ektiv va sub'ektiv belgilari atroflicha, bu turdagi boshqa jinoyatlar bilan solishtirilgan holda, tahlil qilindi. Dissertantning ta'kidlashicha, JKning 155-moddasida terrorizm jinoyatining tavsiflovchi harakatlar haddan tashqari umumiy ko'rinishda ifodalangan. Bunday

holatlarda qilmishga huquqiy baho berishda ma'lum bir jarayonlarda aniqlik yetishmasligi holatlari mavjud bo'ladi.

Yuqoridagilardan tashqari, terrorizm jinoyati haqida fuqarolarning tegishli idoralarga xabar bermasligi hamda terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyiy harakatlar haqida N.I.Vetrov, M.N.Golodnyuk, J.A.Ibrohimov, Yu.A.Krutikina, Yu.I.Lyapunov, Ya.A.Mиценко, A.D.Makarov, A.A.Oboleninov, Ye.V.Ponomarenko, D.S.Trofimov, V.A.Truxachev va boshqa ko'pgina olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib, qiyosiy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining kriminologik tavsifi va bu boradagi tendensiyalarning namoyon bo'lishi”** nomli ikkinchi bobida tadqiqotchi dunyo miqyosida terrorchi tashkilotlar tomonidan terrorchilik harakatlarining kriminologik jihatlari hamda ushbu turdagi terrorchilik harakatlarining sodir etilishidagi alohida tendensiyalar va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Transport vositalaridan foydalanib sodir etilgan terrorchilik harakatlarning paydo bo'lgan vaqtdan hozirga qadar o'zgarish tendensiyalari hamda terrorchilik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari alohida tahlillar asosida yoritilgan. Shuningdek, transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining nishondagi ob'ektlari va ushbu ob'ektlarning xususiyatlari alohida tasniflangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Terrorizm jinoyatining ko'rinishi sifatida transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining kriminologik tavsifi”* deb nomlanib, mazkur paragrafda dissertant transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlari bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilish sabab va shart sharoitlari, jinoyatchilarning alohida belgilari hamda ushbu huquqqa xilof harakatning statistik rivojlanish jarayonini o'rganib chiqqan.

Xususan, *(ushbu turdagi terrorchilik harakatlarning sodir etilish dinamikasini aniqlash uchun)* dissertant alohida transport vositalari yordamida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarning 2000-2025 yillar oralig'idagi umumiy statistik tahlilini amalga oshirib, ularni 2 yo'nalishda tasniflagan.

Ya'ni, ushbu turdagi terrorchilik harakatlarining sodir etilish tendensiyasi tahlillariga ko'ra, 25 yil davomida, ya'ni 2000 yildan 2025 yilning boshiga qadar harbiy harakatlar olib borilayotgan nobarqaror davlatlardan (Iroq, Afg'oniston, Pokiston, Somali, Suriya, Nigeriya) tashqari dunyoda jami 111 marotaba transport vositalari ishtirokida terrorchilik harakatlari sodir etilgan bo'lsa, shulardan 14 tasi transport vositalarining ichida *(ya'ni zarar yetkazish ob'ekti transport vositasining ichkarisi hisoblanadi)* amalga oshirilgan. Tahlil qilishda qulaylik yaratish uchun qolgan 97 ta holatni 2 yo'nalishga, ya'ni:

- transport vositalaridan foydalanib, hech qanday portlovchi moddalarsiz insonlarni urib yuborish bilan zarar yetkazib sodir etilgan terrorchilik harakatlari;

- transport vositalaridan foydalanib, ichiga portlovchi moddalarni o'rnatgan holda biror bino yoki ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'luvchi ob'ektlarga borib urilib, portlash orqali sodir etilishi holatlariga bo'lib olindi.

Birinchi holat, ya'ni transport vositalaridan foydalanib, hech qanday *portlovchi moddalarsiz insonlarni urib yuborish (taran)* usuli bilan yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida jami 50 marotaba terrorchilik harakatlari sodir etilgan.

Ikkinchi holatda ko'rsatilgan, transport vositalaridan foydalanib, ichiga *portlovchi moddalarni o'rnatgan holda biror bino yoki boshqa ob'ektlarga borib urilish* usuli orqali 47 marotaba terrorchilik harakatlari sodir etilganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida ko'rsatilgan 97 ta terrorchilik harakatlarining sodir etilishida foydalanilgan transport vositalari turi bo'yicha tahlillarga ko'ra quyidagilar ma'lum bo'ldi. Xususan, 13 ta holatda yo'tanlamas avtomobillari, 7 ta holatda yengil avtomobillari, 1 ta holatda samolyot, 1 ta holatda qayiq, 2 ta holatda avtobus, 1 ta holatda mikroavtobus, 3 ta holatda ekskavator, 1 ta holatda buldozer, 68 ta holatda o'rtacha va yirik yuk avtomobillaridan foydalanilganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, dunyoda sodir etilayotgan barcha turdagi terrorchilik harakatlari xususan, transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarini kriminologik jihatlari alohida tahlil qilingan. Jumladan tadqiqotchi tomonidan terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini shartli ravishda ikkiga bo'lib o'rganilgan. **1) jinoyat sodir etilgan vaqtda ushbu jinoyat sodir etilishiga turtki bo'lgan ob'ektiv sabab va shart-sharoitlar; 2) aynan jinoyatchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan sub'ektiv omillar.**

1) jinoyat sodir etilgan vaqtda ushbu jinoyat sodir etilishiga turtki bo'lgan ob'ektiv sabab va shart-sharoitlar: dissertantning fikricha oxirgi yillarda dunyoda terrorchilik harakatlari turli usullar orqali sodir etilayotganligiga, ya'ni bu turdagi jinoyatlarning ob'ektiv tomonining yanada murakkablashib ketayotganligiga jamiyatda yuzaga kelayotgan qator muammolardan iborat quyidagi **shart-sharoitlar** sabab bo'lmoqda:

- globallashuv jarayonining kuchayishi ortidan turli xil terrorchilik guruhlari tomonidan portlovchi moddalarni topish va bu turdagi qurilmalarni yasash imkoniyati mavjudligi;

- dunyodagi ko'plab jamiyatlardagi aholi orasida tanqidiy fikrlash darajasining juda pastligi (*aynan shu omil tufayli, fuqarolarni osonlik bilan turli ekstremistik va terroristik guruhlarining g'oyaviy ta'siriga tushib qolish holatlari ko'payib bormoqda*);

- jahonning aksariyat mintaqalarida etnik adovat hamda kichik hududlarda irqiy, siyosiy muammolarning to'la ijobiy hal etilmayotganligi (*buning ortidan, terrorchi guruhlar aralashgan qurolli hujumlarni amalga oshirish holatlari davom etmoqda*);

- oxirgi yillarda, dunyo aholisi orasida ishsizlikni ortib borayotganligi hamda terrorchi tashkilotlar o'zlarining moliyaviy holatlarini tez vaqt oralig'ida mustahkamlashga intilayotganligi (*buning ortidan odam savdosi yoki tinch aholi vakillarini garovga olish holatlari uchrab turibdi*);

- ko'p davlatlarning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektori ehtimoliy hujumlardan kam himoyalangan hamda zaif hicoblanayotganligi (*terrorchi tashkilotlar tomonidan bu sektorlar orqali o'z maqsadlariga erishishlarini osonlashtirmoqda*);

- ayrim yadro quroliga ega bo'lgan davlatlardagi terrorizmga qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash ishlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi (*buning ortidan, ayrim terrorchi tashkilotlar ushbu davlatlarda yadro qurollaridan foydalanish huquqini qo'lga kiritishga bir muncha yaqinlashishganligi kuzatilmoqda*);

- dunyo miqyosida internet va axborot texnologiyalarini o'ziga qamrab olgan kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash muammolarining saqlanib qolayotganligi.

Shu bilan birga, dissertant tomonidan olib borilgan tahlillarga ko'ra, oxirgi yillarda **transport vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining soni ortib ketishiga quyidagi sharoit va omillar** sabab bo'lmoqda:

a). Terrorchilik harakatini sodir etishda transport vositasini qulayligi bilan bog'liq omillar, ya'ni:

- transport vositalarini ko'p hollarda ijaraga olish yoki ularga oson egalik qilish imkoniyatining mavjudligi;

- avtotransport vositasini egallashda an'anaviy qurollar kabi alohida ruxsatnoma talab qilinmasligi;

- transport vositalaridan foydalanish boshqa qurollar yoki vositalarga qaraganda kam xarajatliligi;

- terrorchilik harakatlarida foydalanilishi mumkin bo'lgan (asosan yuk avtomobillari) avtotransportlarni harakat yo'nalishlarini nazorat qilish tizimini yo'lga qo'yilmaganligi;

- avariya holatlarida, talafotlar darajasini kamaytirishga xizmat qiluvchi texnologik tizimlardan (majburiy to'xtash tizimi) foydalanilmasligi;

v). Huquq-tartibot organlarining ushbu turdagi terrorchilik harakatlariga samarali qarshi kurashishlariga to'sqinlik qiluvchi omillar:

- portlatilishi rejalashtirilgan avtotransport vositasi tirbandliklar va oddiy yoki strategik ahamiyatga ega bo'lgan binolar yonida turgan vaqtda, huquq-tartibot idora xodimlarida shubha uyg'otmasligi;

- ushbu usulda terrorchilik harakati sodir etilganidan keyin, jinoyatchilarni o'z tasarrufidagi transportdan foydalanib, tezkorlik bilan voqea joyidan yashirinish imkoniyati mavjudligi;

- har doim ham portlovchi moddalarni topish yoki ularni yasash muammosining mavjud emasligi;

- fuqarolarda, ushbu usuldagi terrorchilik harakatlarini o'ziga xos belgilari haqida tushunchalarning yo'qligi, ularning huquq-tartibot organlariga ko'maklashish imkoniyatining pastligi.

g). Shaharsozlik qurilishidagi kamchiliklar natijasida, jamoatchilik ob'ektlarini avtomobil hujumlaridan himoyalashga to'sqinlik qiluvchi omillar:

- ko'p joylarda avtomobil yo'llari bilan piyodalar yo'lagi orasiga kuchli avtomobil zarbalariga bardosh beruvchi ustunlar o'rnatilmaganligi;

- barcha turdagi umumiy jamoatchilik ob'ektlari atrofi va binolar ichkarisiga kirish qismiga dekorativ usullardan foydalanib, himoya vazifasini bajaruvchi vositalar (skameykalar, axlat qutilari, kichik hajmdagi haykallar, yo'l belgilarining ustunlari va boshqalar) o'rnatilmaganligi;

- jamoatchilik ob'ektlarida terrorizmga qarshi qaratilgan har bir ob'ektga oid umumiy belgilangan talablar ishlab chiqilmaganligi.

2) Jinoyatchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan sub'ektiv omillarni o'rganish borasida tadqiqotchi tomonidan quyidagilar atroflicha tahlil qilingan.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, terrorizm jinoyatlarining sub'ektlari mutaassib va keskin fikrlovchi, ijtimoiy hayotda qiynalgan, jamiyatdan alamzada, shuningdek, hayotiy pozitsiyasi shakllanib ulgurmagan shaxslardir.

Mamlakatimiz doirasida o'rganilgan jinoyat ishlari tahlillariga ko'ra, jinoyatchi shaxsi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin:

- terrorizm yo'nalishidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yosh nisbatida 18-30 yoshlilar 13%ni, 30-40 yoshlilar 59%ni, 40-55 yoshlilar 25%ni, 55 yoshdan oshganlar 3%ni tashkil etmoqda;

- ayollar tomonidan sodir etilgan bu turdagi jinoyatlar umumiy jinoyatlarning 4,7% ni tashkil etadi;

- bu yo'nalishda jinoyat sodir etganlarning kundalik mashg'uloti bo'yicha nisbatida talabalar 1%ni, dehqonlar 3%ni, ziyolilar 5%ni, hunarmandlar 7%ni, ishchilar 20%ni, ishsizlar 64%ni tashkil etadi;

- jinoyat sodir etgan shaxslarning ma'lumoti bo'yicha nisbatida o'rta-maxsus ma'lumotga ega shaxslar 19%ni, o'rta ma'lumotga ega shaxslar 75%ni, oliy ma'lumotga ega shaxslar 6%ni tashkil etadi;

- jinoyat sodir etgan shaxslarning taxminan 12% ini muqaddam ushbu turdagi jinoyati uchun sudlangan shaxslar tashkil etadi.

Shuningdek, tahlillarga ko'ra JK 155² –moddasida (*Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish*) nazarda tutilgan jinoyatlar 24–59 yosh orasidagi fuqarolar tomonidan sodir etilganligi kuzatildi. Shundan, mazkur jinoyat ko'p hollarda 30–40 yosh oralig'idagi (65 %) shaxslar tomonidan sodir etilayotganligi aniqlangan. O'rganilgan jinoyat ishi materiallariga ko'ra, 55% jinoyatchilar o'rta, 40% o'rta-maxsus, 5% to'liqsiz o'rta-maxsus ma'lumotga ega. Shuningdek, jinoyat ishlari tahlili aksariyat (96 %) hollarda ushbu jinoyat vaqtincha ishsiz fuqarolar tomonidan sodir etilganligini ko'rsatmoqda. Jinoyatchi shaxsiga oid yana bir jihati mazkur jinoyat ko'pincha oilasiz, ajrashgan yoki bevalar tomonidan sodir etilgan (80 %).

Shu qatorda, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (MDU) mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, aholi orasida taxminan 2-3% shaxslar terrorizmga moyil bo'lgan zo'ravonlikning tashuvchilari hisoblanadi. 10-15% shaxslar esa bevosita terrorchilik tashkilotlari g'oyalari ta'siriga tushgan. Tadqiqot davomida o'rganilgan statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 18-29 yoshdagi shaxslar, terrorchilar orasida 68,5%ni va terrorchilik yo'nalishidagi aniq bir jinoyat sodir etgan shaxslar orasida 51%ni tashkil etadi. 40-49 yoshdagi shaxslar esa, terrorchilar orasida 5,2%ni, bu yo'nalishda jinoyat qilganlar orasida 16,3%ni tashkil qilmoqda. Bu bilan tadqiqot davomida terrorchi shaxslarning o'rtacha yoshi 27,9 yoshni tashkil etishi ma'lum bo'lgan.

Olimlar va ekspert doiralari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib aytish joizki, transport vositalari yordamida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlari asosan quyidagi belgilarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda:

- internet ijtimoiy tarmoqlar orqali terrorchilik tashkilotlari ta'siriga tushgan shaxslar;

- aksariyat hollarda “Yolg'iz terrorchilar” yoki “Yakka bo'rilar” deb ataluvchi, amalda biror terroristik guruhlar tarkibiga qo'shilmagan yakka shaxslar;

- o'q-otar qurollar yoki portlovchi moddalarni ishlatish ko'nikmasiga ega bo'lmagan shaxslar;

- moddiy jihatdan ta'minlanmagan ya'ni terrorchilik aktlarini sodir etish uchun o'q-otar qurol yoki portlovchi moddalarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslar;

Ikkinchi bobning *“Transport vositalari yordamida amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlarining sodir etilish tendensiyalari va alohida xususiyatlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida transport vositalari orqali amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari oxirgi tendensiyalari ko‘rinishlari, alohida xususiyatlari, sodir etilish ko‘lami, yetkazilayotgan zararlar, dunyo hamjamiyatini vahimaga solish holatlari alohida o‘rganilgan. Shuningdek, terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ushbu taktik usuldan aynan qaysi terrorchilik tashkilotlari qanday holatlarda foydalanayotganliklari tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, oxirgi yillarda transport vositalaridan foydalangan holda terrorchilik harakatlarini amalga oshirilishida quyidagi **tendensiyalar** kuzatilmoqda:

a) ushbu turdagi terrorchilik harakatlari asosan yakka (yakka bo‘ri) shaxslar va ba‘zi bir alohida hollarda esa ruhiy nosog‘lom bo‘lganlar tomonidan sodir etilishi kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu turdagi terrorchilik harakatlari aksariyat hollarda guruhlar tomonidan emas, balki *yakka shaxslar* tomonidan sodir etilmoqda. Ya‘ni, terroristik harakatni amalga oshirishda tayyorgarlik ko‘rishdan tortib yakuniy holatga qadar yakka shaxs bir o‘zi harakat qilmoqda. Bunday terrorchilar Yevropada “yolg‘iz terrorchi”lar yoki “yakka bo‘ri”lar deya nomlangan. Bu borada, **“Zo‘ravonlik va ekstremizm”** nomli Britaniya tahliliy markazi rahbari **Jeymi Bartlett**ning fikricha, oxirgi paytlarda internet tarmog‘i orqali terrorchilik faoliyati bilan bog‘liq g‘oyalar keng tarqatilayotganligi va masofadan turib shaxslarni g‘oyaviy ishlovga olish va texnik qurollantirish imkoniyatini oshirib, **“yakka bo‘ri”** ya‘ni yolg‘iz terrorchilarning ko‘payib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

b) ushbu uculda sodir etilgan terrorchilik harakatlarining eng yirik hamda ko‘proq talofat keltirganlari aynan 2016 hamda 2017 yillarda Yevropa qit‘asida amalga oshirildi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2015 yil boshidan 2017 yilning yakuniga qadar harbiy harakatlar olib borilayotgan nobarqaror davlatlardan (Iroq, Afg‘oniston, Pokiston, Somali, Suriya, Nigeriya) tashqari dunyoda jami 77 marotaba (1417 nafar shaxs halok bo‘lgan, 3326 nafari yaralangan) terrorchilik harakatlari amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu terrorchilik harakatlaridan 25 ta (32%) holat aynan transport vositalari yordamida sodir etilgan. Mazkur 25 ta holatda jami 189 (14,1%) nafar shaxslar halok bo‘lib, 1131 (34%) nafari yarador bo‘lgan.

2016 yil boshidan GFR, Fransiya, Buyuk-Britaniya, Shvesiya, Ispaniya, Kanada, AQShda sodir etilgan terrorchilik harakatlarida qurbon bo‘lgan shaxslarning 80 foizi aynan avtomobil terrorizmi natijasida halok bo‘lgan.

Xususan, 2016 yilda Yevropada 2 ta yirik ya‘ni, iyul oyidagi 87 nafar fuqaroning o‘limiga sabab bo‘lgan Nissada va 12 nafar shaxs halok bo‘lgan Berlinda terrorchilik harakatlari sodir etildi. 2017 yilda 5 ta shunday yirik terrorchilik harakatlari sodir etildi. Ya‘ni Quddusdagi terrorchilik harakatida 4 nafar, Londondagi holatda 3 nafar, Stokgolmdagi holatda 5 nafar, Barselonadagi holatda 14 nafar va yana Londondagi ikkinchi holatda 3 nafar shaxslar halok bo‘lgan. 2017 yilda yana AQShning Nyu-York shahrida ham 8 kishining o‘limiga sabab bo‘lgan ushbu turdagi terrorchilik harakati sodir etilgan.

v) bundan tashqari terrorchilik harakatlarini sodir etishda bu uculdan foydalanish holatlari bevosita MDH mamlakatlarida ham kuzatilmoqda.

